

UZBEKİSTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKİSTON: TIL VA MADANIYAT

Lingvistika

2025 Vol. 2 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVİSTİKA

2025 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Zulxumor Xolmanova

Ichki nutq – “Boburnoma” matnining o’ziga xosligini ta’minlovchi omil8

Alisher Ubaydullayev

Ogahiy tarjimasidagi “Guliston” qo’lyozmalarining matniy tadqiqi16

Mushtariy Xolmurodova

“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi turkiy so’zlar25

Bobir Sulaymonov

Lug’at maqolada bosh so’z va izoh matn hududi33

Nigina Sadinova

Badiiy matnda yumor hosil qiluvchi vositalarning o’rni50

Kuldasta Kummetova

Методика анализа парентетических конструкций русского, узбекского и азербайджанского языков56

Arofat Rixsiyeva

Frazeologik birliklarning ontologik asoslari va bilish jarayonidagi maqomi67

Saodat Israilova, Hadyaxon Mo’yдинова

Bilingval ongning ustunligi74

A’замxon Sobitov

Qadimgi turkiy qo’lyozmalardagi reptiliyalarning qiyosiy tahlili82

Feruza Rahmatova

O’zbek va turk tillaridagi somatizmlar sinonimiysi91

Gulbahor Rasulova

“Boburnoma”dagi omonim fitonimlarning qo’llanilishi101

Nargizaxon Boltaboyeva

Buyuk Britaniyadagi dam olish maskanlari nomlari va ularning leksik- semantik xususiyati (ingliz va o’zbek tillari misolida)109

Gulnoza Azamatova

Nemis tilidagi sonli frazeologik birliklar tarkibida inson fazilatlarini baholash xususiyatlari125

Hamro Murotov	
Radioreklama matnlarida leksik birliklar orqali presuppozitsiyaning ifodalanishi	135
Sadoqat Ergasheva	
Jestlarning evolyutsiyasi va integratsiyasi	145
Maftuna Turg'unova	
Topishmoqlarning lingvistik aspektida o'rganilishi	152
Shohista Akramova	
Mualliflik korpusi asosida diskursiv birliklarning funksional-stilistik xususiyatlari (Nusratullo Jumaxo'ja maqolalari misolida)	159
Shaxloxon Tursinbayeva	
Lingvomadaniy birliklarning ranglar misolida badiiy matnda ifodalanishi	172
Durdona Alijonova	
Tovush fe'llarining leksik-semantik va grammatick xususiyatlari	185
Nilufar Bultakova	
Madaniyatlararo kognitiv modellar: o'zbek va ingliz tillarida emotsiyalar ifodasi	193
Madina Akramjonova	
O'zbek va turk tillaridagi fitonimlar tahlili	200
Oltinoy Tillayeva	
O'zbek va Turk maqollarida Oila va Er-xotin munosabatlar	206

Jestlarning evolyutsiyasi va integratsiyasi

Sadoqat ERGASHEVA¹

Abstrakt. Ushbu maqolada jestlarning kelib chiqishi, ularning biologik, psixologik, tilshunoslik va madaniy asoslari tizimli ravishda o'rganiladi. Dastlabki muloqot shakli sifatida jestlar insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida hal qiluvchi rol o'ynagan. Bugungi kunda esa jestlar nafaqat muloqot vositasi, balki ijtimoiy, madaniy va kognitiv tushunchalarning ifodachisi sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada jestlarning evolyutsion manbalari, neyropsixologik asoslari, til bilan bog'liqligi, madaniyatlararo tafovutlari va raqamli kommunikatsiya vositalarida qanday o'zgarishga uchrayotgani, globalizatsiya davrida jestlarning universallashuvi va milliy xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik ham ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, jestlarning xalqaro diplomatiya, ta'lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy sohalardagi amaliy ahamiyati ko'rib chiqiladi. Mazkur maqola jestlarning ko'p qirrali tabiatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *jestlar, muloqot, tilshunoslik, madaniyat, psixologiya, paralingvistika, antropologiya, neyropsixologiya, globalizatsiya.*

Kirish

Insoniyat o'z tarixining eng qadimiy davrlaridan oq bir-biri bilan aloqa qilishga intilgan. Og'zaki til shakllanishidan oldin esa muloqotning asosiy vositasi sifatida tana harakatlari, yuz ifodalari va jestlar xizmat qilgan. Shu sababli jestlar insoniyat muloqoti tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ular nafaqat signal va ishora, balki fikr, hissiyot, niyat va ijtimoiy maqomlarni ifodalovchi vositaga aylangan.

Jestlar inson tafakkuri, til taraqqiyoti, jamiyatdagi o'zaro aloqlari va madaniy kodlar bilan chambarchas bog'liq. Ular insonlar o'rtasidagi noverbal aloqa vositasi bo'lib, til bilan uyg'un ravishda ishlaydi yoki ba'zan uni to'ldiradi. Ko'pgina hollarda jestlar tildan ko'ra tezroq va ta'sirliroq tarzda ma'lumot uzatadi. Jumladan, hissiyotlarning aniqligini va muloqotdagi ishonchlilik darajasini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda jestlar lingvistika, antropologiya, psixologiya,

¹ Sadoqat Ergasheva – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi.

E-pochta: sadafff1989@gmail.com

Iqtibos uchun: Ergasheva S. Jestlarning evolyutsiyasi va integratsiyasi.
O'zbekiston: Til va madaniyat. Lingvistika. 2025-2: 145-151.

sotsiologiya va neyrobiologiya kabi turli ilmiy sohalarning kesishgan nuqtasida o'rganilmoqda. Ch. Darvinnинг XIX asrdagi ishlari, A. Kendon, D. MakNill, P. Ekman va boshqa olimlarning tadqiqotlari bu sohani mustahkam ilmiy asos bilan ta'minladi.

Asosiy qism

1. Jestlarning biologik va evolyutsion ildizlari

Jestlar insoniyat evolyutsiyasining ajralmas qismi bo'lib, ularning ildizlari hayvonot olamiga borib taqaladi. Ch. Darwin o'zining "The Expression of the Emotions in Man and Animals" (1872) asarida inson va hayvonlarning emotsional ifodalari o'rtasidagi o'xshashliklarga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, odamzodda paydo bo'lgan ko'plab jestlar hayvonlarda ham mavjud bo'lib, bu harakatlar atavistik, ya'ni ajdodlardan meros bo'lib kelgan xatti-harakatlardir [Darwin, 1872: 45–58].

Masalan, qo'rquv paytida qochishga tayyor holat, g'azab paytida ko'zlarni kattaroq ochish, mushtni siqish – bularning barchasi primat'lardagi instinkтив jestlarning davomi hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotchi M. Tomasello primatlar, ayniqsa shimpanzelarning jestlar orqali ijtimoiy muloqot qilishi, niyat bildirish va hamkorlikni yo'lga qo'yishini isbotlagan [Tomasello, 2008: 112–134]. Bu tadqiqotlar inson tili va jestlarining umumiy poydevori mavjudligini ko'rsatadi.

Shuningdek, biologik antropologiyada odamzodning qo'l panjalari tuzilishi va mushaklarining rivojlanishi ham jestlar bilan bog'liq bo'lib, ular tafakkur bilan bevosita uzviyilkda ishlaydi. Bu harakatlar orqali inson nafaqat muloqot qiladi, balki tafakkur jarayonlarini tashqi muhitga aks ettiradi.

2. Psixologik va nevrologik asoslar

Jestlarning shakllanishida psixologik va neyrofiziologik jarayonlar muhim rol o'ynaydi. Psixolog Pol Ekman emotsional ifodalar global bo'lishi mumkinligini isbotlagan. U "The Repertoire of Nonverbal Behavior" asarida ba'zi hissiyotlar butun dunyo bo'ylab bir xil yuz harakatlari orqali ifodalanishini ta'kidlaydi. Quvonch, g'azab, qo'rquv, jirkanish, hayrat, qayg'u kabi hissiyotlar yuzda bir xil tarzda namoyon bo'ladi [Ekman, Friesen, 1969: 73–89].

Neyropsixologik jihatdan esa, PET va fMRI texnologiyalari orqali miya korteksining til bilan bog'liq qismlari – Broka va Vernike sohalari – jestlar ishlab chiqarishda ham faol ekani aniqlangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, inson biror gapni so'zlamasdan turib, faqat jestlar bilan ifoda qilganda ham ushbu miya zonalari faollashadi

¹ Primat – yunoncha so'z bo'lib, maymun degan ma'noni anglatadi.

[Nishitani, Hari, 2002: 143–159].

Shuningdek, dastlabki bolalik davrida jestlarning tildan oldin paydo bo'lishi ham shuni ko'rsatadiki, ular miyaning arxaik kommunikativ tizimining bir qismidir. Bu jihatlar tilshunoslik, psixologiya va nevrologiyaning kesishgan nuqtasida jestlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

3. Jestlar tilshunoslik doirasida

Jestlar lingvistik muloqotning muhim komponentidir. Ular paralingvistik vosita bo'lib, nutqni to'ldiradi, mustahkamlaydi yoki ba'zan inkor qiladi. D. MakNill jestlarni to'rt asosiy turga ajratadi: ikonik, metaforik, deiktik va ritmik [McNeill, 1992: 12–31]. Ikonik jestlar gapirlayotgan fikrga bevosita aloqador, metaforiklar esa mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Deiktik jestlar yo'nalishni, ritmiklar esa nutq urg'usini ko'rsatadi.

Tilshunoslikda multimodal muloqot nazariyasi asosida jestlar nutqdagi semantik va pragmatik yukni kuchaytiruvchi vosita sifatida ko'rildi. Masalan, "Men seni chaqirdim!" degan gapning turli jestlar bilan aytishi unga turli mazmun yuklashi mumkin. Bu esa jestlar va til birgalikda ishlayotganini ko'rsatadi [Kendon, 2004: 65–78].

O'zbek tilida ham jestlar muloqotda muhim rol o'ynaydi. Qo'lni yurak ustiga qo'yish hurmatni bildirsa, qo'lni tebratish rad etishni anglatadi. Bu kabi jestlar tilda ifodalanmaydigan, ammo kontekstual ma'no beruvchi belgilar hisoblanadi.

4. Madaniyatlararo tafovutlar

Har bir xalq va madaniyat jestlarga o'ziga xos ma'no yuklaydi. Bu borada kulturologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi jestlar bir madaniyatda ijobiy, boshqasida salbiy yoki nomaqbul tarzda qabul qilinadi. Misol uchun, AQShda bosh barmoqni yuqoriga ko'tarish "yaxshi" degani bo'lsa, Yaqin Sharq mamlakatlarida bu haqorat sifatida qabul qilinadi [Morris, 1994: 33–35].

Yaponiyada kamroq jestlar ishlatiladi, ko'proq tana holati va kamtarona egilishlar muloqotda ahamiyatga ega. Bukilib salom berish – ijtimoiy maqom va hurmat belgisi. Ochiq mimika ko'pincha odobsizlik deb qaraladi.

Italiyaliklar esa aksincha, qo'l harakatlarini juda faol qo'llaydi. Ular so'zlar bilan birga dinamik harakatlar orqali his-tuyg'ularni kuchli ifodalaydi.

O'zbekistonda esa jestlar ko'proq odob-axloq me'yorlariga bog'liq: salomlashishda, duo qilganda, marosimlarda ishlatiladigan jestlar o'ziga xos. Qo'lni yurakka qo'yish, ikki qo'l bilan salomlashish,

bosh egish – hurmat va samimiyat belgisi.

AQShda ko'zga tik qarash, qo'l berib ko'rishish – ishonch va ochiqlik belgisi. Hindistonda "Namaste" – qo'llarni birlashtirib, bukilib salomlashish – ruhiy tinchlik va hurmatni bildiradi.

Kongoda esa ko'rishayotganlar, avvalo, qo'llarini bir-birlariga cho'zib, keyin ularga puflasharekan. Puflashko'pchilikmamlakatlarda haqorat yoki norozilikni bildirsa, Keniya davlati aholisi orasida ro'parasidagi odamga nisbatan hurmatni bildirish uchun unga qarab puflanishi kerak ekan [Yusupova, <https://worldlyjournals.com/index.php/ztdq/article/download/162/150/262>].

Bu madaniy tafovutlar til o'rganishda, xalqaro diplomatiya, migratsiya, ta'lim va xalqaro biznesda muhim ahamiyatga ega. Jestlarning turli madaniylatlarda qanday anglashilishini tushunmaslik muloqotda xatolarga olib kelishi mumkin.

5. Raqamli kommunikatsiyadagi transformatsiya

Zamonaviy texnologiyalar jestlarga yangi format olib kirdi. Videoqo'ng'iroqlar, GIF, emoji va avatarlardan foydalanish noverbal ifoda vositalarini yangi bosqichga olib chiqdi. Masalan,



– ma'qullash;



– kulgu;



– minnatdorchilik yoki duo.

Bu belgilar global tus olgan bo'lsa-da, ularning talqini hamon madaniy kontekstga bog'liq bo'lishi mumkin. Shunday ekan, globalizatsiya jestlarni birlashtirishi bilan birga, ularning madaniy xususiyatini ham yangilaydi.



"Yoqdi" (like) tugmasi yoki "qovoq palagini ko'tarish" ikonkasi virtual jestlarning shakliga aylangan.



Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda jonli efirlar yoki TikTok platformasidagi mimik jestlar yangi vizual kommunikatsiyani shakllantiradi. Ba'zi tadqiqotchilar raqamli jestlar (digital gestures) yangi vizual til elementlari ekanligini ta'kidlaydi [Tagg, 2015: 119–130].

Bu yangi shakllar jestlarning doirasi kengayganini va muloqotda yanada dinamik vosita bo'lib borayotganini ko'rsatadi.

6. Amaliy ahamiyati

Jestlar nafaqat muloqot, balki psixoterapiya, pedagogika, marketing va siyosatda ham faol qo'llaniladi. Masalan, psixologiyada emotsional bloklarni yechishda tana harakatlariga e'tibor beriladi. Ta'limda, ayniqsa bolalar bilan ishlashda, o'qituvchining jestlar bilan dars o'tishi bilimning mustahkamlanishiga yordam beradi.

Siyosatchilar nutqlarida qo'l harakatlarini samarali ishlatish orqali auditoriyani ishontirishadi. R. Nixon va J. Kennedining 1960-yillardagi teledebatida jestlar va tana harakatlar isaylovchilarga katta ta'sir ko'rsatgan [Krauss, 2000: 242–255].

Shuningdek, tibbiyotda autizm spektridagi bolalarda jestlarning rivojlanishini tahlil qilish diagnostik mezon sifatida qo'llaniladi.

Xulosa

Jestlar inson muloqotining qadimiyligi, ammo zamonaviy vositalaridan biri bo'lib, ularning ildizlari biologik va madaniy qatlamlarga borib taqaladi. Ular muloqotni boyitadi, emotsiyalarni kuchaytiradi, madaniyatlararo farqlilikni aks ettiradi va zamonaviy raqamli muloqotda ham yangi shakllarda mavjud bo'lmoqda.

Tilshunoslik, psixologiya, neyrobiologiya va madaniyatshunoslik doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, jestlar inson tafakkurining, jamiyatning va madaniyatning ajralmas bir qismidir. Shunday ekan, ularni o'rganish muloqotni chuqurroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- Darwin, C. 1872. *The expression of the emotions in man and animals*. John Murray.
- Ekman, P., Friesen, W. V. 1969. The repertoire of nonverbal behavior: Categories, origins, usage, and coding. *Semiotica*, 1(1), 73–89.
- Tomasello, M. 2008. *Origins of human communication*. MIT Press.
- McNeill, D. 1992. *Hand and mind: What gestures reveal about thought*. University of Chicago Press.
- Kendon, A. 2004. *Gesture: Visible action as utterance*. Cambridge University Press.
- Morris, D. 1994. *Bodytalk: The meaning of human gestures*. Crown Publishing.
- Yusupova, M. Muloqotda novelbal vositalarning qo'llanilishi. <https://worldlyjournals.com/index.php/ztvdq/article/download/162/150/262>. 9.06.2025
- Nishitani, N., Hari, R. 2002. Viewing lip forms: Cortical dynamics. *Human Brain Mapping*, 17(3), 143–159.
- Tagg, C. 2015. *Exploring digital communication: Language in action*. Routledge.

- Krauss, R. M. 2000. Behavior and speech in political communication. *Journal of Nonverbal Behavior*, 24(3), 242–255.

The evolution and integration of gestures

Sadoqat ERGASHEVA¹

Abstract. This article systematically explores the origin of gestures, focusing on their biological, psychological, linguistic, and cultural foundations. Gestures played a crucial role in the early stages of human development as an initial form of communication. Today, gestures are regarded not only as a means of communication but also as expressions of social, cultural, and cognitive concepts. This paper analyzes the evolutionary origins of gestures, their neuropsychological bases, their relationship with language, intercultural differences, and how gestures are changing in digital communication contexts. It also examines the interplay between the universalization of gestures in the age of globalization and the preservation of national characteristics. Additionally, the practical significance of gestures in international diplomacy, education, medicine, and other social fields is discussed. This article aims to contribute to a deeper understanding of the multifaceted nature of gestures.

Keywords: *gestures, communication, linguistics, culture, psychology, paralinguistics, anthropology, neuropsychology, globalization.*

References

- Darwin, C. 1872. The expression of the emotions in man and animals. John Murray.
- Ekman, P., Friesen, W. V. 1969. The repertoire of nonverbal behavior: Categories, origins, usage, and coding. *Semiotica*, 1(1), 73–89.
- Tomasello, M. 2008. Origins of human communication. MIT Press.
- McNeill, D. 1992. Hand and mind: What gestures reveal about thought. University of Chicago Press.
- Kendon, A. 2004. Gesture: Visible action as utterance. Cambridge University Press.
- Morris, D. 1994. Bodytalk: The meaning of human gestures. Crown Publishing.
- Nishitani, N., & Hari, R. 2002. Viewing lip forms: Cortical dynamics. *Human Brain Mapping*, 17(3), 143–159.
- Tagg, C. 2015. Exploring digital communication: Language in action.

¹ Ergasheva Sadoqat – Teacher of Tashkent State University of Oriental Studies.

E-mail: sadafff1989@gmail.com

ORCID: 0009-003-2572-040X

For citation: Ergasheva, S. The Evolution and Integration of Gestures. *Uzbekistan: Language and Culture. Linguistics*. 2025-2: 145-151.

Routledge.

- Krauss, R. M. 2000. Behavior and speech in political communication.
Journal of Nonverbal Behavior, 24(3), 242–255.